

**SCIENCE  
PROBLEMS.UZ**

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences  
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar  
fanlarning dolzARB  
muammolari**

Jild 3, Son 12/2

**2023**

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

## **ИЖТИМОЙЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

**№ 12/2 (3)-2023**

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**ТОШКЕНТ-2023**

## **БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

## **ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

### **07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:**

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Укташ Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

### **08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:**

Карлибаева Раја Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойкулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўкташович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Ҳатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Ҳамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б., Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

### **09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:**

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яҳшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукахаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

### **10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шуҳрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салаҳутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Сайдов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

### **12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:**

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Ҳуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Файбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти хузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амирнов Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судъялар олий кенгаси хузуридаги Судъялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич - юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

### **13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:**

Хашимова Диљдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент аҳборот технологиялари университети хузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

---

### **ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

---

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари** электрон журнали  
1368-сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.  
Муассис: "SCIENCEPROBLEMS TEAM"  
масъулияти чекланган жамият.

Тайланова Шохида Зайниневна - педагогика фанлари доктори, доцент.

### **19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

### **22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:**

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

### **23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР**

Назаров Насридин Атакулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

### **Таҳририят манзили:**

Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:  
[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

Телеграм канал:

[https://t.me/scienceproblems\\_uz](https://t.me/scienceproblems_uz)

## МУНДАРИЖА

### 10.00.00 – ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ

<i>Axmedov Oybek Saparbaevich</i>	
ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДА СОЛИҚ-БОЖХОНА ТЕРМИНОЛОГИЯСИДА АНТОНИМИЯ ҲОДИСАСИНИНГ ЎРНИ.....	10-18
<i>Nematova Maftuna</i>	
ЛАКУНА И ТИПОЛОГИЯ ЛАКУН .....	19-24
<i>Hamroyeva Shahlo Mirdjonovna, Matyakubova Noila Shakirjonovna</i>	
MOSLASHTIRISH JARAYONIDA O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI SODDA GAPLARNING SINTAKТИК TAHLILI.....	25-32
<i>Jo'rayeva Nilufar Sobirjon qizi</i>	
"SMILE" VA "TABASSUM" TUSHUNCHALARINING LINGVISTIK IFODASI (INGLIZ VA O'ZBEK TILLARI MISOLIDA) .....	33-38
<i>Sidiknazarova Zulfiya Mirsharapovna</i>	
BADIY TARJIMA TAHLILINING NAZARIY ASOSLARI .....	39-43
<i>Jumanova Shahnoza Ikromjonovna</i>	
IJTIMOIY – PSIXOLOGIK MOTIVNI ANGLATISHDA PEYZAJNING O'RNI .....	44-50
<i>Achilov Oybek Rustamovich</i>	
ILGAR SURISH VOSITALARINING BADIY ASAR SARLAVHASIDA TASNIFLANISHI VA O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	51-57
<i>Axmedova Madinabonu Maxmudjonovna</i>	
XALQ NASRI JANRLARINING O'ZARO MUNOSABATLARI .....	58-62
<i>Isroilova Manzura Jamolovna</i>	
FRANSUZ KOMPARATIV FRAZEOLOGIZMLARINING USLUBIY XUSUSIYATLARI .....	63-68
<i>Кенжабоев Шокир Абдулхалимович</i>	
ОСОБОЕ МЕСТО В ИЗУЧЕНИИ И РАЗВИТИИ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ ИНОСТРАННОГО ЯЗЫКА В ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА .....	69-74
<i>Fayziyev Bahodir Baxshullayevich</i>	
J. K. ROULINGNING "GARRI POTTER VA AFSONAVIY TOSH" ASARIDAGI TO'QIMA NOMLAR VA REALIYALAR HAMDA ULARNING RUS VA O'ZBEK TILLARIGA TARJIMASI .....	75-79
<i>Mamatqulova Shoxsanam Isroil qizi</i>	
OLAMNING O'ZBEK LISONIY TASVIRIDA "FIDOIYLIK" KATEGORIYASI .....	80-84
<i>Тухтаева Фарида Исматуллаевна</i>	
ИССЛЕДОВАНИЕ СТЕРЕОТИПОВ РОМАНАХ ПЕРЛ БАК .....	85-90
<i>Radjabova Dildora Raximovna</i>	
PIRIMQUL QODIROVNING "YULDUZLI TUNLAR" ASARI INGLIZCHA TARJIMASIDA BOBUR PSIXOLOGIYASI .....	91-96
<i>Mansurova Shohista Ismailovna</i>	
BADIY TARJIMANING MAQSADI, VAZIFALARI VA TARJIMA METODLARI .....	97-102
<i>Ermatov Ixtiyor</i>	
SIRDARYO VILOYATI TOPONIMLARI.....	103-108

<i>Axmedjanova Farida Djavairovna</i>	
GRAMMAR INSTRUCTION IN COMMUNICATIVE LANGUAGE TEACHING .....	109-114
<i>Saitov Suxrob Djumaydillayevich</i>	
ARTISTIC INTERPRETATION AND RESOLUTION OF HUMAN TRAGEDIES IN THE STORY .....	115-119
<i>Tўрабоева Ҳакима Усмонжон қизи</i>	
ФИРДАВСИЙ ДАҲОСИГА МЕХР .....	120-124
<i>Toshpo'latova Xusniya Mamayusub qizi, Normamatov Farrux Komiljon o'g'li</i>	
INGLIZ REKLAMA SHIIDLARI TARJIMASI JARAYONIDA	
SHAKL VA MA'NO MUVOFIQLIGI .....	125-129
<i>Abdumannonov Xojsiakbar Akmaljon ugli</i>	
ОСВЕЩЕНИЕ ФРАЗЕОЛОГИИ В СВЕТЕ НАУЧНОЙ ЛИТЕРАТУРЫ (краткий обзор на примере учебных пособий и словарей узбекского языка) .....	130-136
<i>Abdullaeva Raъno Xikmatovna</i>	
РЕПРЕЗЕНТАЦИЯ КОНЦЕПТА «ДРУГ/ДРУЖБА» В РУССКОЙ И УЗБЕКСКОЙ ПОСЛОВИЧНОЙ ЯЗЫКОВОЙ КАРТИНЕ МИРА .....	137-144
<i>Hamidova Sayyora Nurmatovna</i>	
TILSHUNOSLIKNI MENTALINGVISTIK BOSQICHIDA KOGNITIV TADQIQOTLAR.....	145-151
<i>Rustamova Dilrabohon</i>	
ATAMALAR LUG'ATINING UMUMIY VA FARQLI TOMONLARI .....	152-157
<i>Khazratqulova Ozoda Abduganiyevna</i>	
EXPRESSION OF THE CONCEPT OF FORGIVENESS IN LEXICOGRAPHIC SOURCES AND ARTISTIC LITERATURE .....	158-162
<i>Farmonov Nurbek Pulatovich</i>	
WEB OF SCIENCE MA'LUMOTLAR TIZIMIDAN FOYDALANISH .....	163-169
<i>Xojiyeva Oynisa Shabonovna</i>	
ALISHER NAVOIY ASARLARIDA TURKIY XALQLAR MAQOLLARINING AKS ETISHI .....	170-176
<i>Norqobilov Sanjar Rahmat ugli</i>	
COMPARING COMPUTATIONAL LINGUISTICS APPROACHES ACROSS LANGUAGES .....	177-182
<i>Mamarasulova Iroda Jumanovna, Xojimetov Sa'dulla Jumanazarovich</i>	
ANGLIYA UYG'ONISH DAVRI ADABIYOTI .....	183-190
<i>Xo'jamqulov Anvar Jozilovich</i>	
OMON MUXTOR ROMANLARIDA POETIK USLUB QIRRALARI .....	191-196
<b>12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР</b>	
<i>Кутыбаева Елизавета Дүйсенбаевна, Аманиязова Света Байнязовна</i>	
ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ ОРГАНИЗАЦИИ И ФУНКЦИОНИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ ОРГАНОВ ИСПОЛНИТЕЛЬНОЙ ВЛАСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН .....	197-203
<i>Mirzaabdullaeva Matluba Rustamovna</i>	
СУВДАН ФОЙДАЛАНУВЧИ ВА СУВ ИСТЕМЛЧИСИ ТУШУНЧАЛАРИНИНГ ҲУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ ХУСУСИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР .....	204-209
<i>Toshkanov Nurbek Bahriiddinovich</i>	
BILIMLAR IQTISODIYOTI VA INTELLEKTUAL MULK: TIJORATLASHTIRISHNING BA'ZI HUQUQIY JIHATLARI VA MUAMMOLARI .....	210-216

<i>Nishonov Abdulloh Ubaydulloh o'g'li</i>	
ATOM ENERGIYASINI JOYLASHTIRISHNING XALQARO EKOLOGIK TALABLARI .....	217-223
<b>13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ</b>	
<i>Javliyeva Shaxnoza Baxodirovna</i>	
OLIY TA'LIM MUASSALARIDA TA'LIM SIFATINI OSHIRISHNING PEDAGOGIK SHART- SHAROITLARI .....	224-228
<i>Sadullayeva Shahlo Azimbayevna, Parmankulov Farxodjon Nurali o'g'li</i>	
TYUTORLAR ISH JARAYONIGA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARINI TATBIQ ETISH METODIKASI .....	229-233
<i>Pirimova Nargiza Adilovna</i>	
SPORT-TAYYORGARLIK MASHG'ULOTLARIDA BALANDLIKKA SAKROVCHI QIZLARNING O'QUV-MASHG'ULOT JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH .....	234-239
<i>Tangirqulov Elmurod Aliyarovich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA ATROF-MUHITNI ASRASH ORQALI EKOLOGIK TARBIYA BERISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA "YASHIL MAKON" MODULLARI .....	240-244
<i>Xayrov Rasim Zolimxon o'g'li</i>	
BO'LAJAK TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING KASBIY-METODIK TAYYORGARLIGINI TAKOMILLASHTIRISHDA TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING QO'LLANILISHI .....	245-258
<i>Ahmadjonova Odina Anvarjon qizi</i>	
ZAMONAVIY TA'LIM MUHITIDA INGLIZ TILI DARSLARIDA STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYASIDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI: STEAM KOMPETENSIYALAR TUSHUNCHASI .....	259-265
<i>Valieva Xolida</i>	
AJDODLAR MEROSI - INSONIYAT BOYLDI .....	266-271
<i>Djumayeva Dildora Isroilovna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	272-277
<i>Davlatova Nilufar Vosiljonovna</i>	
TA'LIM-ISSLAB CHIQARISH INTEGRATSİYASINI KUCHAYTIRISHDA ZAMONAVIY TA'LIMNING O'RNI VA MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI .....	278-285
<i>Mamaraimova Zebo Shafoatovna</i>	
YUQORI SINF O'QUVCHILARINI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK TAMOYILLARI .....	286-290
<i>Turayev Yolqin Sherzod o'g'li</i>	
KATTA MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI BOLALARDA DALILY ASOSLASH KO'NIKMASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI .....	291-295
<i>Abdurashulova Shoira Kushakovna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KASBIY KOMPETENTLILIGINI INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISH .....	296-305
<i>Sottarov Abduvali Umirkulovich</i>	
UMUMIY FIZIKA KURSINI O'QTISHDA NANOTEXNOLOGIYA FAN VA TEXNIKA SOHASI SIFATIDA .....	306-310

<i>Xushnazarova Ma'mura Nodirovna</i>	
VOLONTYORLIK FAOLIYATINIG IJTIMOIY-PEDAGOGIK MUAMMOLARI .....	311-315
<i>Xushvaqtov Umar Norqobilovich</i>	
AXBOROT TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANIB O'QUVCHILARDA IMPERATIV TAFAKKURNI RIVOJLANTIRISHDA KOMPETENSIYANING RO'LI .....	316-320
<i>Alimqulova Ra'noxon Gulmirzayevna</i>	
BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHGA ZAMONAVIY YONDASHUVLAR .....	321-326
<i>No'monxonova Muattarxon Nosirxon qizi</i>	
BO'LAJAK TILSHUNOSLARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISHDA AXBOROT TEXNOLOGIYALARKOMMUNIKATIV KOMPETENSIYALARINING AFZALLIKLARI VA KAMCHILIKLARI .....	327-331
<i>Xalikov Faroxidin</i>	
TA'LIM TIZIMIDA TESTOLOGIYADAN FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH SAMARADORLIGI .....	332-339
<i>Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich</i>	
OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH .....	340-345
<i>Якубова Нафиса Одилжановна</i>	
ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУССАСАЛАРИДА ЧИЗМАЧИЛИК ДАРСЛАРИДА ТАЛАБАЛАРНИ ИЖОДИЙ-КРЕАТИВ ФИКРЛАШГА ЎРГАТИШ МЕТОДИКАСИНИ ТАКОМИЛЛАШТИРИШ .....	346-354
<i>Karimov Qayum Mamashayevich</i>	
TALABALARNI KOMPYUTERLI MATEMATIKA TIZIMLARINING GRAFIK IMKONIYATIDAN FOYDALANISH BO'YICHA BILIMINI OSHIRISH .....	355-360
<i>Yusupova Shoxista Alimjanovna</i>	
TO'GARAK MASHG'ULOTLARI ORQALI TASVIRIY SAN'AT FANIGA ASOSLANGAN XOLDA O'QUVCHILAR IJODIY QOBILIYATINI RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI .....	361-371
<i>Касимов Ойбек Омилович</i>	
СПОРТДА АХЛОҚИЙ ҚОИДАЛАР ВА “FAIR PLAY” НОРМАЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ...	372-378
<i>Abduraxmonov Akbar Abduxamidovich</i>	
MILLIYLIK VA UMUMINSONIYLIK TAMOYILLARI UYG'UNLASHUVINING NAZARIY- METODOLOGIK JIHATLARI .....	379-386
<i>Фазлиддинов Шухрат Фахриддинович</i>	
ПРИМЕНЕНИЕ ИННОВАЦИОННЫХ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ТЕХНОЛОГИЙ НА ЗАНЯТИЯХ ПРИ ИЗУЧЕНИИ КАТЕГОРИИ РОДА ГЛАГОЛА В ПЕДАГОГИЧЕСКИХ ВУЗАХ .....	387-394
<i>Jurayev Bobomurod Ramazonali o'g'li</i>	
TALABALARNING JISMONIY FAOLLIGINI OSHIRISH VA RIVOJLANTIRISH JARAYONINING SAMARADORLIK DARAJASI .....	395-400
<i>Eshbekova Gulabahor Zafarboyevna</i>	
MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING YOZISH KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH MUAMMOLARI .....	401-406

<i>Khidirova Malakhat Qazakhovna</i>	
ORGANIZATION AND EVALUATION OF THE EDUCATIONAL PROCESS BASED ON EUTAGOGICAL APPROACHES .....	407-413
<i>Fayzullayeva Madina Abdumo'min qizi, Xolbo'tayeva Moxinur Temurboy qizi</i>	
MENEJMENT SOHASINI O'QITISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH .....	414-420
<i>Achilov Nuriddin Abdugafforovich</i>	
AL-HAKIM AT-TERMIZIY TA'LIMOTINING ILMIY TADQIQI .....	421-426
<i>Norinov Muxammadyunus Usibjonovich</i>	
JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BO'LAJAK MUHANDISLARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHNING AHAMIYATI .....	427-432
<i>Begimqulov Zarif Axmadovich</i>	
JISMONIY TARBIYA YO'RIQCHISINING IJTIMOIY-MADANIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA MALAKA OSHIRISH JARAYONINING AHAMIYATI .....	433-438
<i>Izbosarova Zuxro Anatoliy qizi</i>	
BO'LAJAK BOShLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARINING KOMMUNIKATIV KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SAMARADORLIGI .....	439-443
<i>Jumayev Sirojiddin Zafarovich</i>	
MOLEKULYAR BIOLOGIYADAN OQSILLARNING AMINOKISLOTA TARKIBI VA AMINOKISLOTALARNING TASNIFI MAVZUSINI O'QITISHDA MASALA VA MASHQLARDAN FOYDALANISH .....	444-449
<i>Pulatova Muxabbat Egamberdiyevna</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA INNOVATSION KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI .....	450-457
<i>Yuldashev Mengali Ziyaduloyevich</i>	
BOSHLANG'ICH SINF O'QITUVCHILARIDA MUSTAQIL ISHLASH KOMPITENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH .....	458-463

**Abduvaxidov Xusan Abdulkulovich**  
Toshkent davlat pedagogika universitetining  
mustaqil tadqiqotchisi

**OLIY TA'LIM TALABALARIDA INNOVATSION YONDASHUV ORQALI  
KOMPETENTSIYALARINI SHAKLLANTIRISH**

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarga innovatsion yondashuv orqali kompetentlikni shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlashning zarurati haqida so'z yuritilgan. Zamonaviy ta'lif texnologiyalari imkoniyatlaridan hamda yaratilayotgan o'quv uslubiy majmualardan unumli foydalanish negizida bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy hamda amaliy asoslarini yaratish muhim vazifalardan biri ekanligini to'g'risida fikrlar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** yangi pedagogik texnologiya, innovatsion texnologiya, kompetentsiya, interfaol ta'lif metodlari, o'qituvchining kasbiy kompetentligi, integratsiya.

**Abduvakhidov Husan Abdulkulovich**  
Independent researcher of Tashkent  
State Pedagogical University

**FORMING COMPETENCES THROUGH AN INNOVATIVE APPROACH IN HIGHER  
EDUCATION STUDENTS**

**Annotation.** This article talks about the need to provide students with pedagogical conditions for the formation of competence through an innovative approach. It was discussed that one of the important tasks is to create the theoretical and practical foundations of the process of developing the professional competence of future teachers based on the effective use of the opportunities of modern educational technologies and the created educational methodological complexes.

**Key words:** new pedagogical technology, innovative technology, competence, interactive educational methods, teacher's professional competence, integration.

**Абдувахидов Хусан Абдукулович**  
Независимый научный сотрудник Ташкентского  
государственного педагогического университета

**ФОРМИРОВАНИЕ КОМПЕТЕНЦИЙ ЧЕРЕЗ ИННОВАЦИОННЫЙ ПОДХОД У  
СТУДЕНТОВ ВУЗОВ**

**Аннотация.** В данной статье говорится о необходимости предоставления студентам педагогических условий для формирования компетентности посредством инновационного подхода. Обсуждалось, что одной из важных задач является создание теоретических и практических основ процесса развития профессиональной компетентности будущих учителей на основе эффективного использования возможностей современных образовательных технологий и созданных учебно-методических комплексов.

**Ключевые слова:** новые педагогические технологии, инновационные технологии, компетентность, интерактивные методы обучения, профессиональная компетентность педагога, интеграция.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V3I12.2Y2023N53>

“Ilm shunday ulug’, buyuk narsa-ki, uning qadriga yetish kerak.  
Qadriga yetganlar baxt-saodatga, ulug’likka erishadi”.  
Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf

**Kirish.** Respublikamizda so’ngi yillarda oliy ta’lim tizimida yuqori malakali raqobatbardosh kadrlar tayyorlashda normativ-huquqiy va moddiy-texnik bazasi yangilandi. Bo’lajak o’qituvchilarining kasbiy kompetentligini rivojlantirishning “yuksak bilimli va intellektual rivojlangan avlodni tarbiyalash, oliy ta’lim muassasalarida kompetentli ilmiy pedagogik kadrlar zaxirasini yaratish” kabi universal vazifalar belgilandi [1; 3-b.]. Bo’lajak o’qituvchilarda ijtimoiy va ijodkorlikni faollashtirish kasbiy kompetentlikni rivojlantirish imkoniyatlari kengaymoqda.

Bugungi kunda ta’limga doir bir qator me’yoriy hujjatlarda ta’lim sifatini oshirishning muhim shartlaridan biri talabalarga innovatsion yondashuv orqali kompetenligini rivojlantirish vositasi sifatida pedagogik texnologiyalardan yanada kengroq foydalanish lozimligi ko’p bor tilga olinadi [2; 25-26-b.]. Bu talab o’sib kelayotgan avlodning savodxonligini oshiradigan o’qituvchilarning kasbiy tayyorgarligi va pedagogik ta’lim sohasidagi strategik reja asosida belgilanadi.

**Adabiyotlar tahlili va metodologiya.** Qadim zamonlardan bizning davrimizgacha yetib kelgan arxeologik qazilmalar orqali va yozib qoldirilgan manbalardan o’sha davrlardan boshlab, talabalarga nisbatan qo’llanilgan ta’lim-tarbiyaning usullarini bilishimiz mumkin. Asosan o’sha davrda yashagan yunonistonlik tarixchi Geradotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” asarlari, Mahmud Koshg’ariyning “Devonu lug’otit turk” asarlari va boshqa tarixiy manbalar orqali bizgacha etib kelgan [3; 5-b.]. Ma'lumki, bundan uch ming yillar ilgari Zardushtiylik dinining muqaddas kitobi “Avesto”da ham ta’lim-tarbiya masalalariga juda katta e’tibor berilgan. Qadim zamonlardan boshlab, talabalarning ta’lim-tarbiyasiga, o’qish, yozishiga, diniy, axloqiy tarbiyasiga va bundan tashqari jismoniy jihatdan chiniqishlariga ham ahamiyat berilgan.

Keyingi davrlarda ya’ni, sobiq sovet ittifoqi tuzumi davrida esa, O’rta Osiyoda mavjud bo’lgan barcha o’quv yurtlarida kommunizm mafkurasi bilan sug’orilgan rus sovet pedagog-olimlarining tarjima qilingan o’quv darslik kitoblari barcha ta’lim muassasalarida o’qitib kelindi. O’zbekiston mustaqillikka erishgachgina, talabalarimiz ajdodlarimizdan meros bo’lib kelgan, o’zimizning milliy o’zbek ma’rifatparvarlarining ma’naviy va madaniy xazinasidan bahramand bo’ldilar. Bugungi kunga kelib eski sovetlar pedagogikasidan voz kechgan holda, pedagogika sohasida olib borilayotgan islohotlar jarayonida, milliy pedagogikaning nazariy va amaliy asoslari yaratilmoqda va pedagogik faoliyatda uning tamoyillari va usullari qo’llanilmoqda. Ta’lim tizimining barcha bo’g’inlari bo'yicha, milliy o’quv dasturlari yaratildi va yangi dasturlar asosida zamon talablariga javob beradigan o’quv darsliklar ham yaratilmoqda.

O’zbekistonda bo’lajak o’qituvchilarda kasbiy kompetentlikni shakllantirish, ularni kasbga yo’naltirishning pedagogik-psixologik asoslari haqida e’tiborga molik fikrlarni ilgari surishgan pedagog olimlardan N.Azizzodjayeva, R.X.Djurayev, M.Davletshin, V.Karimova, X.Abdikarimov, N.Muslimov va boshqalar o’z ilmiy ishlarida tarixiy meroslarimizda kasbga yo’naltirilganlik g’oyalarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati va muhimligi masalalari haqida

ko'plab fikr-mulohazalar bayon etishgan. Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy bilim va malakalarni shakllantirish, malakali kadrlar tayyorlash masalasini o'zlarining ilmiy-tadqiqotlarida muammoni ilmiy-uslubiy jihatdan tahlil etishgan.

**Muhokama.** Yangi pedagogik texnologiyalarni o'quv jarayoniga tatbiq etish uchun uning ilmiy-amaliy mexanizmini yaratish zarur. Hayotda barcha yo'nalishlarning o'zgarishini ko'pincha innovatsion jarayonlar belgilab beradi. Hatto ilgarilari ta'lim tizimida ishlataligan iboralar ham eskirib, o'rnini yangicha terminlar egallamoqda. Avvallari maktablarda faqat o'qish yozishni o'rgatish uchun e'tibor berilgan bo'lsa, bugungi kunga kelib ta'lim tizimiga taraqqiyot tufayli ta'lim berishning innovatsion texnologiyalari kirib kelmoqda. Ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatayotgan barcha bo'g'inlar kesimining asosiy maqsadi, ta'limni tezroq rivojlantirish uchun innovatsion ta'lim elementlarini tizimga tezroq kiritish, lekin buning uchun avvalo barcha ta'lim tizimlaridagi pedagoglar jamoasi har tomonlama tayyor bo'lishi kerak. Bugungi kunda mamlakatimizda eng avvalo, ta'lim tizimini takomillashtirish uchun har tomonlama yetuk, jismonan baquvvat, intellektual salohiyatli, barkamol, mustaqil fikrlaydigan, irodali va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berish lozim.

Har qanday yangilik ham hayotga osonlikcha tatbiq qilinavermaydi, o'ziga yarasha murakkabligi va qiyinchiliklari bo'ladi, "innovatsiya", "innovatsion jarayonlar", "innovatsion ta'lim", "innovatsion texnologiyalar" degan tushunchalarni avvalo zamonaviy nuqtai nazardan ularni tub mohiyatini puxta o'zlashtirib o'rganish lozim bo'ladi. Olam yaralgandan buyon rivojlanish, taraqqiyot inson faoliyatining asosiy qismi bo'lib kelmoqda. Inson hayotda tajribasi oshib borgan sayin har sohada ham o'z faoliyatini takomillashtirib aqliy imkoniyatlarini oshiradi, doimiy holda uning o'zi ham rivojlanib boradi. Rivojlanish insonga xos bo'lgan tushuncha. Bu pedagogik faoliyatga ham tegishlidir. Tarbiyaga dastlab oilada zamin yaratiladi, poydevori qo'yiladi. Talabalarning texnologik kompetentsiyasini innovatsion yondashuv asosida shakllantirish uchun, eng avvalo, o'qituvchi pedagoglar innovatsiyalar to'g'risida umumiy tushunchaga ega bo'lishi kerak.

Pedagogik innovatsion texnologiyalar Yevropada XX asrning 50-60 yillaridan boshlab, shakllanib kelgan. Ancha yillardan beri, O'zbekistonda ham bu texnologiyalarni o'rganish boshlab yuborilgan. Keyingi yillarda olimlarimiz tomonidan bu sohada ko'pgina ishlar amalga oshirildi. Bugungi kunda mamlakatimiz olimlari tomonidan nnovatsiya, innovatsion tafakkur, innovatsion faoliyat, pedagogik innovatsiyalar bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmokda. Darslarda innovatsion usullarni qo'llash, darslarning sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Shuning uchun ham "innovatsiya", "innovatsion jarayon", "innovatsion texnologiyalar", "innovatsion faoliyat" kabi tushunchalarining ma'nosini anglab, interfaol uslublardan foydalanib dars jarayonlarini tashkil etish, muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bugungi ta'limni zamonaviy shaklining asosiy maqsadi har tomonlama rivojlangan, har qanday murakkab vaziyatlarning yechimlarini topishga, ijodiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalash va shakllantirishdan iboratdir. Bu esa o'z navbatida innovatsion yondashuv asosida talabalarni texnologik kompetentsiyasini shakllantirishni talab qiladi [4; 12-b.]. Dunyo miqyosida ham ta'lim tizimidagi islohotlar, pedagogik jarayonlarga innovatsion yondashuv va interfaol texnologiyalarni qo'llashni taqozo etmokda. Dars jarayonida oliy ta'lim o'qituvchisining kasbiy-pedagogik jihatdan ijodkorligi va rivojlanganlik darajasi uning ta'lim jarayonida qo'llayotgan innovatsiyalarning sifati va samaradorligiga bevosita bog'liq bo'ladi.

**Natijalar.** Kompetentli yondashuv asosida oliy ta'limning barcha fan o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish, har-xil xarakterdagi intellektual topshiriqlar, interfaol texnologiyalar orqali takomillashtirib boriladi. Bundan tashqari kompetentli yondashuv, oliy ta'lim o'qituvchilarining kreativ fikrlashlarini rivojlantirishga va o'z ustida ishlashlari uchun tayyorlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Bizning jamiyatimiz bugungi kunda ko'proq o'z ustida ishlaydigan, o'ziga xos erkin fikrlaydigan, o'z fanining tom ma'nodagi fidoysi bo'lgan ijodkor insonlarga ehtiyoj sezmoqda. Bizda ta'lim tizimini yuqori darajaga olib chiqish uchun barcha zarur shart sharoitlar mavjud, o'quv-uslubiy qo'llanmalar yaratish uchun ARM, axborot texnologiyalari va masofaviy ta'lim markazi, axborot texnologiyalari va internetdan yangi pedagogik texnologiyalardan to'liq foydalanish uchun jihozlangan xonalar ham tashkil qilingan, faqatgina tinimsiz ilmiy izlanishlar olib borish lozim bo'ladi xolos. Talabalarni har tomonlama kompetentsiyasini shakllantirish uchun, ularni dars jarayonlarida, aqliy va jismoniy jihatdan hamda axloqiy-psixologik nuqtai nazardan ham tayyorlashga e'tibor berish lozim.

Talabalarni ta'lim olishga yo'naltirish uchun kompetentlikka yondashgan holda, dars jarayonida ham, sinfdan tashqari vaqtarda ham talaba mustaqil izlansa, ijodiy ishlar bilan shug'ullansagina maqsadga muvofiq bo'ladi. Oxirgi yillarda ta'lim tizimida qo'llanilayotgan innovatsion texnologiyalarning dolzarbliги sezilib bormokda. Ta'limning yangi tizimini asosiy talablaridan biri har tomonlama rivojlangan, har qanday murakkab vaziyatlarda ham muammoning yechimini topadigan, ijodiy fikrlay oladigan shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazishni shakllantirishdan iborat. Bu esa o'z navbatida innovatsion yondashuv asosida talabalarni texnologik kompetentsiyasini shakllantirishni talab qiladi. Talabalarni kompetentsiyasini shakllantirishdan asosiy maqsad, birinchi navbatda ularni dunyoviy ilmlarni egallashlariga va intellektual salohiyatlari qilib, ijodiy mehnat qilishga o'rgatish va har tomonlama rivojlanishiga yordam berishdir. Ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar ta'limning sifat va samaradorligining rivojlanish sur'atini yanada takomillashtirish hamda yaratilgan imkoniyatlar va shart-sharoitlardan samarali foydalanish, oliy ta'lim muassasalari uchun raqobatbardosh o'qituvchilarni tayyorlash bugungi kunda eng muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy texnika va texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanib borishi, mavjud bilimlarning tezlik bilan yangilanayotganligi, oliy ta'lim o'qituvchilaridan barcha sharoitlarga moslashish ko'nikma va malakalarga ega bo'lish hamda yangi bilimlarni egallashga intilishni talab etadi. Buning uchun oliy ta'limning barcha fan o'qituvchilarining o'zi hayotda ham, ilmda ham mustaqil izlanishga, o'qituvchilikda hamda hayotiy muammolarni mustaqil yechib unga ijodiy yondashishga o'rganib borishi zarur bo'ladi. Bugungi kunda mustaqil fikrlovchi erkin shaxsni shakllantirish uzlusiz ta'lim tizimining asosiy vazifasi bo'lib, bunda kompetentli yondashuv asosida oliy ta'lim fan o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

**Muhokama.** Kompetentsiya – har bir pedagogdan mutaxassisligi bo'yicha o'z bilimlarini tinmay boyitib borishini, ta'lim tizimidagi yangiliklarni o'rganishini, dunyo miqqosida ta'limga bo'lgan talabalarni hushyorlik bilan his qilishi,yangi interfaol metodlarni mahorat bilan amaliyotda qo'llay olishini, talab qiladi. Kompetentsiya egasi bo'lgan mutaxassis muammolarni yechishda o'zi o'zlashtirib olgan, aynan shu sharoitga mos metod va usullardan foydalanishni yaxshi bilishi, hozirgi vaziyatga munosib bo'lgan metodlarni tanlab olib qo'llashi, to'g'ri

kelmaydiganlarini rad etishi, masalaga tanqidiy ko'z bilan qarashi kabi ko'nikmalarga ega bo'ladi.

Kompetentlik oliy ta'limning bo'lajak o'qituvchilarini shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ega kasbiy faoliyatni amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini egallashi hamda ularni kasbiy faoliyatda qo'llay olishini ifodalaydi [5; 21-b.]. Buning uchun, albatta ta'lim-tarbiya jarayonini yuqori malakali ilmiy-pedagog kadrlar, sifatli o'quv-metodik va didaktik materiallar bilan ta'minlash, ta'lim tizimi bilan ilm-fan va amaliy faoliyat o'rtasida o'zaro foydali integratsiyani yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Integratsiya (inglizcha – "integratio" so'zidan olingan bo'lib-qismlarning tiklanishi, birlashishi) degan ma'noni anglatadi. Ta'lim tizimida kompetentli yondashuvni amalda qo'llash uchun, jarayonining barcha tomonlarini sinchikovlik bilan va ilmiy nuqtai nazardan o'rganishni talab etadi.

**Natijalar.** Oliy ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini ta'limning har bir fanini o'qitishni sifat va samaradorligini oshirish uchun, aynan fan o'qituvchisining kompetentliligini shakllantirish bilan amalga oshirish mumkin. Buning uchun ta'lim jarayonida, amalga oshirish texnologiyalarini ishlab chiqish va ta'limni modernizatsiya qilish eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Oliy ta'lim tizimida fan va pedagogik ijodkorligini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri bu ta'lim jarayonini samarali va sifatli tashkil etish bo'lib, asosiy maqsad mashg'ulot jarayonini ijodiy nuqtai nazardan tashkil etish, turli interfaol ta'lim metodlaridan unumli foydalanishdir.

Asosan, interfaol ta'lim metodlaridan, noan'anaviy shakldagi dars mashg'ulotlari o'quvchilarni jamoa, hamda guruhlar ishtirokida faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirish bilan birga boshqalar fikrini eshitish, o'zining mustaqil fikrlarini ilgari surish va ularni asoslab berish, mavzular yuzasidan bildirilayotgan fikrlarni umumlashtirib, ular orasidan eng muhimlarini tanlab olish, shuningdek, yakuniy xulosaga kelish imkoniyati yaratiladiki, natijada o'quvchilarda o'quv materiallarini o'zlashtirishga bo'lgan qiziqish va ehtiyoj yuzaga keladi hamda rivojlanib boradi [6; 90-b.]. Fanlar bo'yicha darslarning samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida, e'tirof etilayotgan pedagogik texnologiyalarini o'quv jarayoniga samarali qo'llanilish darajasini tahlil qilishda, qanday natijaga erishilganligini, fanlarning mazmun-mohiyatini talabalar tomonidan qanday o'zlashtirganligiga qarab aniqlanadi. Yuqorida qayd etilgan fikrlarni amalga tatbiq qilish uchun, har bir pedagog o'zining fanlarining asoslarini puxta egallagan, pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha bilim sirlari bilan chuqur qurollangan, kasbiy tayyorgarligi yuqori darajada bo'lgan hamda ilg'or pedagogik texnologiyalar va zamonaviy axborot texnologiyalarini o'rganish bilan birga, yangicha o'qitish metodlarining mazmun va mohiyatini bilishi va amalda yuqori darajada qo'llay olishi hamda ularning faoliyatiga uslubiy jihatdan yordam ko'rsata olishi zarur.

**Xulosa.** Darhaqiqat, yangicha ta'lim tizimini joriy etishda har bir fan o'qituvchisi o'zining faniga oid axborotlarni muntazam ravishda o'rgana borib, ularni o'z ish faoliyatida sifatli qo'llay bilsagina, ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talablari darajasida tashkil eta olishi mumkin. Oliy ta'lim tizimi talabalarida ta'lim jarayonga nisbatan tizimli, kompleks yondashuvni taqozo etadi. Oliy ta'lim o'qituvchisi chuqur bilimli va samarali faoliyat yurita olish mahoratiga ega bo'lishi va o'zining fani bo'yicha unda yetarli nazariy va amaliy bilimlarning, ta'lim jarayonida zamonaviy axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish malakasini qanday darajada shakllanganiga bog'liqdir.

Shunday qilib, yuqoridagi ushbu tarkibiy qismlarning barchasi talabalarga innovatsion yondashuv orqali kompetenligini tashkil etadi va darslarning mazmunini rejalashtirish va tanlashda hisobga olinishi kerakligini ta'kidlaydi. Xulosa qilib shuni ta'kidlash lozimki, kasbiy kompetentlik – bu o'zidan ijodiy va amaliy tayyorgarlikni kasb etgan bilim va ko'nikmalar, pedagogik fazilatlar yig'indisidir. Yuqori malakali o'qituvchilarini tayyorlash uchun attestatsiya tizimini yaratish, joyida o'qishni qo'llab-quvatlash, universitetlar o'rtasida hamkorlik aloqalarini o'rnatish va o'quv dasturlari o'qituvchilarning malakasiga asoslanganligini ta'minlash kerak.

#### **Адабиётлар/Литература/References:**

1. Т.С.Зеленецкая. О формировании компетентности. Высшее образование в России, №6, 2005.
2. A.A.Berikbayev. Bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarining Kasbiy kompetentligini rivojlantirish. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2023 y.
3. J.G'.Yuldashev. Pedagogik texnologiya asoslari. T.: "O'qituvchi" nashriyoti, 2004 y.
4. L.R.Zaripov. Innovatsion yondashuv asosida 5-7-sinf o'quvchilarida texnologik kopetentsiyalarni shakllantirish metodikasi. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. T.: 2020 y.
5. O.A.Qo'ysinov. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak o'quvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyasi. T.: 2019 y.
6. "Rezervdag'i va zaxiradagi ofitserlarni tayyorlash tizimini rivojlantirishda innovatsion yondashuv" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferentsiya materiallari. 21.06.2022 y. Farg'ona Davlat Universiteti.

# **SCIENCEPROBLEMS.UZ**

**ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ  
ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**

*Nº 12/2 (3) – 2023*

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-  
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

**ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES**

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг  
долзарб муаммолари**” электрон  
журнали 2020 йил 6 август куни 1368-  
сонли гувоҳнома билан давлат  
рўйхатига олинган.

**Муассис:** “SCIENCEPROBLEMS TEAM”  
маъсулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яққасарой  
тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-

уй. Электрон манзил:

[scienceproblems.uz@gmail.com](mailto:scienceproblems.uz@gmail.com)

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).